

HY-611 Toshkent-Moskva reysi haqida rasmiy ma'lumot

2023 2 Yanvar

Bugun, 2-yanvar kuni HY-611 reysi Toshkentdan Moskvaga jadval asosida parvozni amalga oshirgan. Boeing 767 havo kemasi komandiri yo'lovchining sog'ligi yomonlashgani sababli soat 08:28da (Toshkent vaqt bilan) Samara xalqaro aeroportiga qo'nishga majbur bo'ldi. Yo'lovchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatildi. Samolyot Toshkent vaqt bilan soat 10:33 da Samaradan Moskvaga uchib ketdi.

Shu munosabat bilan HY-612 reysi Moskva-Toshkent yo'nalishi bo'yicha kechikib amalga oshirildi.

Shuningdek, Moskva-Qarshi yo'nalishi bo'yicha harakatlanayotgan HY-9624 reysidagi yo'lovchining sog'ligi yomonlashgani tufayli Airbus A320 havo kemasi Urganch xalqaro aeroprtiga majburiy ravishda qo'ndirilgan. Yo'lovchiga tez tibbiy yordam ko'rsatilgan va ushbu yo'nalishdagi reys belgilangan manzilga yetib kelgan.

"Uzbekistan Airways" AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.